

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 9 Jild 4

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 9 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохид Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich</i> RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA PIRENEY YARIM OROLIDAGI KORTESLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI	10-14
<i>Azizbek Xolliyev</i> XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA ROSSIYA TOG'-KON SANOATIDA BRITANIYA SARMOYASINING TUTGAN O'RNI	15-20
<i>Mahkamov Abdiqayum Mahkamovich</i> SUDYALAR OLIY KENGASHINING SUDYALAR KORPUSINI SHAKLLANTIRISHDA TUTGAN O'RNI (TARIXIY TAHLIL)	21-25
<i>Eshimov Shaxridin Xujayorovich</i> SUD – HUQUQ TIZIMIDAGI TARG'IBOTCHILIK FAOLIYATI VA MA'NAVIY – MA'RIFIY ISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	26-31
<i>Намазова Умида Нормурадовна</i> ИЛК ЎРТА АСРЛАР СУҒДДА НИКОҲ: ШАКЛЛАНИШИ, ТАРИХИЙ ИЛДИЗЛАРИ ВА ХУСУСИЯТЛАРИ	32-41
<i>Самадов Искандар Исмамович</i> ХОРАЗМ ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ (ХХСР)ДА ЕР-СУВ МАСАЛАСИ	42-48
<i>Rustamova Madina Musoqulovna</i> SAMARQAND VILOYATI XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN, TA'LIM VA INNOVATSIYALARGA QO'SHGAN HISSASI	49-56
<i>Jiyanbekova Sharofat Abdikaharovna</i> SOVET DAVRIDA KITOB TAQIQLARIGA NISBATAN O'ZIGA XOS SENZURA AMALIYOTLARI...	57-64
<i>Tursunov Javlonbek Akrom o'g'li</i> MUQADDAS QADAMJOLAR. SAMARQAND SHAHRINING TARIXIY TOPONOMIYASINING MUHIM TARKIBIY QISMI	65-68

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Tolipova Baxtigul</i> MAMLAKAT OZIQ-OVQAT SANOATIGA YO'NALTIRILGAN INVESTISIYALARNING EKONOMETRIK TAHLILI	69-77
<i>Mamanazarov Abdusamat Abdusaitovich</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PUL-KREDIT SIYOSATI KO'RSATKICHLARI TAHLILI	78-83
<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич, Хасанова Руфина Раисовна</i> ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ	84-96
<i>Meliyeva Nargiza Eshboyevna</i> INSON RESURLARINI BOSHQARISHDA RIVOJLANGAN DAVLATLARING TAJRIBASI	97-104

<i>Исраилов Рустам Ибрагимович</i> КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ	105-109
<i>Jumaniyazov Inomjon To'raevich</i> APPLICATION OF ESG PRINCIPLES IN THE ACTIVITIES OF SOVEREIGN INVESTMENT FUNDS	110-120
<i>Amonov Navro'zxon Saloxiddin o'g'li</i> MINTAQAVIY MEHNAT BOZORIDAGI ISHCHI KUCHIGA TALAB VA TAKLIFNI ISTIQBOLLASHTIRISH YO'LLARI	121-129
<i>Mirxamidova Zahinabonu Mirxamid qizi</i> ROBOTLASHTIRISH DAVRIDA MEHNAT BOZORINING O'ZGARISHI: TO'RTINCHI SANOAT INQILOBI MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI.....	130-138
<i>Kalbayev Muratbay Aytbaevich</i> AYLANMA MABLAG'LARNI TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI	139-144
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Ernazarova Yorqinoy Ollaberganovna</i> RIVOJLANGAN DAVLATLARDA KADRLAR XIZMATINI TASHKIL ETISH: ODOB-AXLOQ QOIDALARI VA KASBIY MADANIYAT TALABLARIGA RIOYA ETILISHINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI	145-155
<i>Ahrorova Shahlo O'rinboyevna</i> GLOBALASHUV SHAROITIDA MILLIY QADRIYATLARNING TAKOMILLASHUVI JARAYONI	156-161
<i>Рахманов Баҳодир</i> АЛИШЕР НАВОЙИ КОМИЛ ИНСОН КОНСЕПСИЯСИДА СИНЕРГЕТИК ҲОЯЛАР ИНЪИКОСИ	162-170
<i>Нуралиева Насиба Ахмадқуловна</i> ЖАДИД МУТАФАККИРЛАРИ ИЖОДИДА ТАРБИЯГА ОИД ҚАРАШЛАРНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ	171-176
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Fayzulloev Otabek Muhammadovich</i> KATTALAR FOLKLORINING TARKIBIY QISMI – BOLALAR FOLKLORI HAQIDA.....	177-184
<i>Тоқимбетова Гулбахор Абатбаевна</i> ЎЗБЕК-ҚОРАҚАЛПОҚ АДАБИЁТШУНОСЛИГИДА ИРФОНИЙ ОБРАЗЛАР	185-190
<i>Yusupova Sadokat Alijon qizi</i> “BOBURNOMA”NING YAPONIYADA O'RGANILISHI	191-197
<i>Xudoyberdiyeva Gulmira Allaberdi qizi</i> JAHON TILSHUNOSLIGIDA POLISEMIYA HODISASIGA LINGVISTIK YONDASHUV (RUS VA INGLIZ TILSHUNOSLIGI MISOLIDA)	198-201
<i>Tangriyev Valisher Azamovich</i> SOMATIK IFODALAR ORQALI BERILGAN PARALINGVISTIK VOSITALARNING QIYOSIY TADQIQI: “ANOR” HIKOYASI MISOLIDA	202-206

<i>Abulova Zilola Azimovna</i> INGLIZ AFORIZMLARINING TARKIBIDA BIR JUMLA HAMDA QO'SHMA GAPLAR BILAN IFODALANGAN AFORIZMLAR XUSUSIYATLARI	207-201
<i>Qurbonova Dilnoza Olimovna</i> TYPES AND FUNCTIONS OF ADVERTISEMENT IN ENGLISH AND UZBEK.....	210-216
<i>Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi</i> ASQAR MAHKAM IJODIDA BUVI OBRAZINING O'ZIGA XOSLIGI	217-221
<i>Babajanova Aziza Rustamovna</i> ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA BAHOR MAVZUSINING BADIY TALQINI	222-227
<i>Khursanova Laylo Bakhtiyarovna</i> REPRESENTATION OF THE CONCEPT OF "PATIENCE" IN SPECIAL ENGLISH DICTIONARIES	228-232
<i>Diyorova Mohlaroyim Xamza qizi</i> O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SIFAT SO'Z TURKUMI TADQIQI	233-238
<i>Samadova Visola Baxtiyor qizi</i> INGLIZ, O'ZBEK VA RUS TILLARIDA ANTONIM KOMPONENTLI FE'L FRAZEOLIGIK BIRLIKRLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI	239-242
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Tўлаганова Гулчехра Захитовна, Гофурова Дилафруз Мурод қизи</i> АЁЛЛАР ТОМОНИДАН СОДИР ЭТИЛГАН ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШНИ РЕЖАЛАШТИРИШ, ЮЗАГА КЕЛАДИГАН ТЕРГОВ ВАЗИЯТЛАРИ ВА ВЕРСИЯЛАРНИ ИЛГАРИ СУРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	243-252
<i>Tosheva Maftuna Anvar qizi</i> INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING TRANSPLANTATSIYASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLAR	253-262
<i>Ikramov Sherzod Raximdjaniyovich</i> VOYAGA YETMAGAN SHAXSLARNI MODDIY TA'MINLASHDAN BO'YIN TOVLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	263-266
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Tohirova Mohigul Umir qizi</i> KO'RISHDA NUQSONI BOR SHAXSLARNING IJTIMOYIY UMIDSIZLIK DARAJASINI PSIXOLOGIK O'RGANISH. (L.I.VASSERMANNING "IJTIMOIY FRUSTRATSIYA (UMIDSIZLIK) DARAJASINI DIAGNOSTIKA QILISH METODOLOGIYASI" ASOSIDA)	267-274
<i>Nasriddinov Dadaxon Komiljonovich</i> OLIY HARBIY TA'LIMDA FIZIKA O'QITISH SAMARADORLIGINI MOBIL ILOVALAR VA ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN OLIB BORILGAN PEDAGOGIK TAJRIBASINOV ISHLARI VA ULARNING NATIJALARI	275-281
<i>Xojaniyazova Inkar Jumanazarovna</i> BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA DIDAKTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH MASALALARI	282-292
<i>Ashurova Marhabo Sayfulloyevna</i> BUXORO JADIDLARI VA YANGI USUL MAKTABLARIDA O'QITISH IMKONIYATLARI	293-301

<i>Алимова Нигора Исраиловна</i> ОСОБЕННОСТИ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА В ОБРАЗОВАНИИ И ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ, НАХОДЯЩИХСЯ НА ДЛИТЕЛЬНОМ ЛЕЧЕНИИ	302-308
<i>Matajonova Gulnoza Karimovna</i> IJTIMOIY FANLARNI TEXNIKA YO'NALISHI TALABALARIGA O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI	309-313
<i>Axmadjanova Madina Maxmudjon qizi</i> GRAMMATIK MINIMUM VA UNI O'QITISH METODLARI	314-319
<i>Norboyev Zafar Abdumuminovich</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA CEFR ME'ZONLARI ASOSIDA YANGI AVLOD DARSLIKLARINI YARATISH TEXNOLOGIYALARI	320-323
<i>Axmedova Zuxraxon Tulyanbayevna</i> QO'L TO'PI O'YININING JISMONIY JIHATDAN O'QUVCHILARNING O'QISHNI TUSHUNISHLARIGA TA'SIRI	324-329
<i>Юсупова Заррина Курбоновна</i> УНИКАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ И ВЫЗОВЫ В РАЗВИТИИ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ	330-334
<i>Ravshanova Xafiza Komilovna</i> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI	335-340
<i>Nurbayeva Xolniso Uralovna</i> GENDER STREOTIPLAR GENDER MADANIYATNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA	341-345
<i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TIZIMLI FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH MUHIM PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	346-351
<i>Mustayeva Guliston Bo'riboyevna</i> TIBBIY TA'LIMDA AKS ETTIRISH AMALIYOTINING AHAMIYATI: UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA KO'MAKLASHISH	348-356
<i>Ahmedbekova Maxpuzaxon</i> TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK VA INNOVATSION JIHLTLARI	357-362
<i>Utkirov Abbos Meyliyevich</i> ARTIFICIAL INTELLIGENCE IMPACT ON HIGHER EDUCATION QUALITY AND EFFICIENCY	363-388
<i>Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi</i> BOSHLANGICH SINIF O'QUVCHILARIDA MATEMATIKA FANI ORQALI TANQIDIY-TAHLILIIY HAMDA MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI.....	389-393
<i>Maxliyo Qalandarova</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCILARNING MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH SHAKLLARI VA USULLARI.....	394-399

Received: 30 August 2024
Accepted: 5 September 2024
Published: 15 September 2024

Article / Original Paper

PEDAGOGICAL AND INNOVATIVE ASPECTS OF IMPROVING STUDENTS' KNOWLEDGE IN ART LESSONS

Akhmedbekova Makhpuzakhon, lecturer,
Fergana State University
m_akhmedbekova@mail.ru

Abstract: a component of human spiritual culture is art. It includes other types such as music, theatre, film, fiction, choreography, tapestry and applied decorative arts. Each type of art uses different tools to reflect the tasks set before it, such as literature - from words, music - from sounds, fine art - from colors and lines, etc. At the same time, each art form within itself is again divided into varieties and genres. The question of understanding art, determining its role in the lives of people has been the subject of sharp controversy throughout the history of culture. In this article, pedagogical and innovative aspects of improving students' knowledge in fine arts classes are studied pedagogically.

Keywords: Education, Innovation, Art, Fine Arts, pedagogical skill, pedagogical technology.

TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK VA INNOVATSION JIHATLARI

Ahmedbekova Maxpuzaxon,
O'qituvchi, Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya: Insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi san'atdir. U musiqa, teatr, kino, badiiy adabiyot, xoreografiya, tasviriy va amaliy bezak san'ati kabi boshqa turlarini o'z ichiga oladi. San'atning har bir turi o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni aks ettirishda har xil vositalardan foydalanadi, masalan, adabiyot - so'zdan, musiqa - tovushlardan, tasviriy san'at - rang va chiziqlardan va hokazo. Shu bilan birga, har bir san'at turi o'z ichida yana xillarga va janrlarga bo'linadi. San'atni tushunish, uning kishilar hayotidagi rolini aniqlash masalasi butun madaniyat tarixi davomida keskin bahs-tartishlarga sabab bo'lib kelgan. Ushbu maqolada tasviriy san'at darslarida o'quvchilar bilimini oshirishning pedagogik va innovatsion jihatlari pedagogik jihatdan tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, innovatsiya, san'at, tasviriy san'at, pedagogik mahorat, pedagogik texnologiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I9Y2024N51>

Kirish. Jahondagi global o'zgarishlar ijtimoiy rivojlanishning muhim omili hisoblangan malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojni oshirmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblangan malakali kadrlar tayyorlash ishini innovatsion asosda tashkil qilish muhim vazifa hisoblanadi. Hozirgi zamon ta'lim tarbiya ishlarini asosiy maqsadi shaxsga o'z hayotida erkin tanlash imkoniyatini yaratib berish, to'g'rirog'i, erkin shaxsni shakllantirishdir.

Ta'lim muassasalari o'qituvchi va murabbiylari oldida erkin fuqaroni yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirish, huquqlarini yaxshi biladigan o'z kuchi va qobiliyatiga

tayanadigan, yuz berayotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jarayonlarga shaxsiy nuqtaiy nazarini bildiradigan, shu bilan birga o'z manfaatini mamlakat va xalq manfaati bilan uyg'unlashtirib, kasb-hunar sirlarni mukammal egallagan mutaxassislarni tarbiyalab voyaga yetkazish vazifasi turibdi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Jamiyat rivojlanishi jarayonining turli jabhalaridagi murakkablashuv, ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarning kengayib borishi, inson faoliyatida, ayniqsa, ilm-fan tomonidan erishilgan yangiliklarning amaliyotga kiritilishi innovatsiyalarning amaliy ahamiyatini oshirgan. Ushbu jarayon o'z navbatida innovatsion faoliyatning ob'ektiv va sub'ektiv omillarga bog'liqligini o'rganish, tahlil qilish va pirovard natijada falsafiy jihatlarini tadqiq etish zaruriyatini vujudga keltirdi. Muammoning echimiga bunday yondashuv o'z navbatida mavzuning nazariy metodologik asoslarini chuqur tahlil etishni hamda innovatsiyalar va kadrlar tayyorlash dasturining o'zaro bog'liqligini yangi rivojlanish bosqichi talablari asosida tadqiq etishni muhim ilmiy vazifa sifatida ilgari suradi.

Jamiyat rivojlanishi jarayonining turli jabhalaridagi murakkablashuv, ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarning kengayib borishi, inson faoliyatida, ayniqsa, ilm-fan tomonidan erishilgan yangiliklarning amaliyotga kiritilishi innovatsiyalarning amaliy ahamiyatini oshirgan. Ushbu jarayon o'z navbatida innovatsion faoliyatning ob'ektiv va sub'ektiv omillarga bog'liqligini o'rganish, tahlil qilish va pirovard natijada falsafiy jihatlarini tadqiq etish zaruriyatini vujudga keltirdi. Muammoning yechimiga bunday yondashuv o'z navbatida mavzuning nazariy metodologik asoslarini chuqur tahlil etishni hamda innovatsiyalar va kadrlar tayyorlash dasturining o'zaro bog'liqligini yangi rivojlanish bosqichi talablari asosida tadqiq etishni muhim ilmiy vazifa sifatida ilgari suradi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan isloxlarning muvaffaqiyati xalqning ma'naviy kamoloti darajasi bilan belgilanadi. Shu nuqtaiy nazardan XXI asrda davlatimizning ravnaqi, uning kuchi hamda salohiyati ko'p jihatdan xalq ma'naviyatining yuksakligi va pokligiga, ziyolilarimiz, yoshlarimizning intellektual savodxonligi, bilimdonligi, bunyodkorligi, tashabbuskorligi va vatanparvarligiga bog'liq.

“Ta’lim tizimiga kiritilayotgan har qanday innovatsiya axborot va metodik ta’minotning mavjudligini ko’zda tutadi. Shu sababli, tasviriy san’at o’quv jarayoniga innovatsiya kiritishda ilg’or pedagogik tajribalarni o’rganish, tahlil qilish va umumlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali o’quv jarayonlari mazmuni va metodlarini takomillashtirish muhim yo’nalishlardan sanaladi. Bu esa o’z navbatida tasviriy san’at o’quv mashg’ulotlarini tashkil etishning samarali shakllari sifatida noan’anaviy darslar, integrativ darslar, ekskursiya darslari, innovatsion o’qitish metodlari sifatida esa muammoli metodlar, interfaol metodlar, amaliy o’yinlar, o’quv loyihalari, portfoliolar, grafik organayzerlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishimiz va o’quvchilarga bilimlarni eng yuqori saviyada singdirishimiz zaruratini belgilaydi”[1]. Tasviriy san’at darslarida o’quvchi yoshlarning rivojlanganlik darajasini aniqlash va uni shakllantirishga erishish o’quvchilarni intellektual qobiliyatlarini, tarbiyalanganlik darajalarini va shaxsiy xarakter sifatlarini aniqlash muhim hisoblanadi. O’quvchilarni shakllanish jarayonini, ularning aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik va tafakkur darajasini me’yorini aniqlamasdan turib ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish mushkuldir.

“Respublikamizda tasviriy san’atni o’rgatish metodikasining shakllanishida mahalliy olimlar, metodistlarning qator izlanishlari, o’quv qoildanmalarining ahamiyati juda katta o’rin tutadi. Badiiy pedagogika metodika sohasidagi so’nggi yutuqlari ko’rsatilgan va talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash, ularni metodik bilim va mahoratlar bilan qurollantirish, o’qitish san’atini egallashga yordam berishni o’ziga asosiy maqsad qilib qo’ygan”[2].

O’quvchilarning bilimli va aql zakovatli yetuk avlod tushunchasi - demokratik tamoyillarini qadrlaydigan, yuksak saloxiyatga, zamonaviy ilm fan va texnologik yutuqlari bilan qurollangan, mamlakatning ijtimoiy- iqtisodiy saloxiyatini oshirishga amaliy hissa qo’shish ma’suliyatini chuqur anglab yetishdir. Ular jamiyat hayotini barcha soxalarini rivojlantirishga, demokratik jamiyat qurishning murakkab va qiyin vazifalarini hal etishiga qodir bo’lgan barkamol avloddir. Bilimli va aql zakovatli yetuk avlod kadrlarni tayyorlash davlat siyosatining demokratik mohiyatida yaqqol namoyon bo’lib, yetuk avlod tarbiyasida ikki tushuncha bir biri bilan doimo uyg’un ishlatiladi, bular ta’lim tushunchasi va tarbiya tushunchasidir.

Tahlil va natijalar. Tasviriy san’at o’qituvchisi ta’lim olayotgan xar bir shaxsning ta’lim tarbiya jarayonini kundalik ishining ajralmas qismi deb bilishi zarur. O’qituvchi ta’lim-tarbiya ishlar ko’lamini rivojlantirish omillari bo’yicha o’z fikr va muloxazalarini, ta’lim va tarbiya tushunchalariga o’z dunyoqarashini quyidagi tushunchalar bilan izohlashi mumkin.

Ta’lim tushunchasi-shaxsning ma’rifiy va tarbiyaviy darajasini oshirish orqali uning aqlan rivojlanishini ta’minlash maqsadida o’rgatuvchi bilan o’rganuvchilar o’zaro birgalikda amalga oshiriladigan didaktik faoliyat. Shaxsning aqliy taraqqiyotini ta’minlash maqsadida ko’riladigan aniq belgilangan chora tadbirlar tizimidir.

Tarbiya tushunchasi- yangi avlod kishilarga katta avlodning ijtimoiy tarixiy tajribasini berish tufayli rivojlanishini ta’minlovchi ijtimoiy funktsiya, ijtimoiy ta’sir ostida inson shaxsiy va ma’naviy dunyosini shakllantirish, qaror toptirish, boyitish va takomillashtirishning aniq maqsadga yo’naltirilgan, tizimlashtirilgan ongi jarayoni deb xisoblayman.

Tarbiya-ta’lim bilan o’zaro jips bog’langan ijtimoiylashning asosiy bo’g’ini xisoblanib, ta’lim tizimining tarkibiy qismi xisoblanadi. Shuni inobatga olgan xolda yoshlarga ta’lim tarbiya berish o’qituvchilarning g’oyaviy e’tiqodi, kasb maxorati, iste’dodi va madaniyati, xozirgi zamon pedagogik texnologiyalarni qo’llashi, o’quvchilarni o’zaro faolikka olib keladi. Har bir pedagog shuni doimo esda tutishi kerakki, dars o’quv-tarbiya jarayonning asosiy shaklidir. Tarbiyaning barcha jarayonlari har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga qaratiladi, birinchi navbatda bu dars jarayonida amalga oshiriladi.

Shuning uchun ham xozirgi sharoitda darsning tarbiyaviy ahamiyatini oshirish masalasi ta’lim muasasasi va o’qituvchi oldiga birinchi darajali vazifa qilib qo’yilmoqda. O’quvchilarni bo’sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish, ularni kasbga bo’lgan mexrini yanada oshirishni yangi uslublaridan foydalanish, bozor isloxatlariga muvofiqligini ta’minlash, ta’lim xizmatlari ko’rsatish bozorida raqobatni rivojlantirishni ular fikriga singdirish, ishlab chiqarishga jalb qilgan xolda ta’lim tarbiya tushunchalarini ular ongida shakllantirib borilsa, o’quvchilarda o’z mexnatlaridan manfaatdor bo’lish va mehnatini qadr qimmatini topish g’oyasi ham shakllanadi.

“San’at tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalarning badiiy tasvirlarda ifodalanishidir. San’at o’zida moddiy olamning umumiy holatini hamda rivojlanishini aks ettirish, odamlarga uni bildirishda muhim vosita bo’lish bilan birga, insonni siyosiy, axloqiy va badiiy jihatdan tarbiyalashning qudratli omili bo’lib xizmat qiladi. San’at voqelikni ifodalash uslubi, xarakteri,

mazmuniga ko'ra, tasviriy san'at, me'morchilik, adabiyot, musiqa, sirk, teatr, kino, radio-televideniya kabi turlarga bo'linadi"[3].

Har bir jamiyatdagi san'at erkinlik asosida vujudga kelsa, bu san'at o'zida insonparvarlik, vatanparvarlik va milliylik kabi ilg'or g'oyalarni ilgari suradi. San'at xalqning maqsadi, orzu-umidlarini aks ettiradi. San'at insoniyatning ezgu niyatlarini, ulaming orzu-umidlarini to'la ifoda etadi. Shu boisdan xalqimiz o'z san'atini qanchalik ardoqlab, unga hurmat va ehtirom bildirsa, jahon xalqlari ham bugungi o'zbek san'atiga ana shunday ixlos va ehtirom bilan qaraydilar.

Ma'lumki, tasviriy san'at - [rang-tasvir](#), [haykaltaroshlik](#), [grafika](#)ni birlashtirgan nafis san'at turi; voqelikni uning osongina ilg'ab olinadigan fazoviy shakllarda ko'rgazmali obrazlarda aks ettiradi. Tasviriy san'at turlari o'z xususiyatlariga qarab real borlikni obyektiv mavjud sifatlari - hajm, rang, fazo, shuningdek, predmetning moddiy shakli va nurhavo muhiti, harakat va o'zgarishlari hissini yaratadi, bunda tasvirning hissiy konkretligidan [illyuzionizm](#)ga o'tish mumkin.

Tasviriy san'at o'quv predmeti har har bir inson uchun zarur bo'lgan badiiy madaniyatga doir elementar bilim va malakalar beradi. Chunki har bir o'quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar u ishdan tashqari vaqtlarida dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi kerak boladi. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan san'at asarlari bilan muzey, ko'rgazmalar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishadi. O'quvchilar o'zlarining kelajak hayotlarida ma'lum miqdorda rasm ishlashlariga to'g'ri keladi. Tasviriy san'at o'quv predmeti har har bir inson uchun zarur bo'lgan badiiy madaniyatga doir elementar bilim va malakalar beradi.

Muhokama. Tasviriy san'at faqat ko'rish mumkin bo'lgan narsalarnigina tasvirlab qolmay, balki asarlarida hodisalarning vaqtinchalik rivoji, uning u yoki bu qismi ([fabula](#)), erkin hikoyanavislik, dinamik harakatlarni ham aks ettirib, dunyoni g'oyaviy o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Tasviriy san'at insonning ruhiy qiyofasini, uning o'zgalar bilan o'zaro munosabatlarini, tasviriy holatning psixologik va emotsional mazmunini ham yoritadi. "Tasviriy san'atni o'qitishda qiziqarli va sermazmun mavzular tanlash o'quvchilarning tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttiradi. Hozirda maktablarda o'quvchilar rasm daftari, bo'yoq, qalam oddiy qalam va o'chirg'ichdan foydalanish bilan chegaralanib qolmasdan, zamonaviy, xorij texnologiyalaridan foydalanib, ishlab chiqarilgan bir qancha turdagi bo'yoqlar, rangli qalamlar, dekorativ bezak ishlarini yorqinlik darajasini oshiruvchi turli chizish vositalaridan foydalanilmoqlar"[4].

Ma'lumki, bugungi kunda maktab o'quv-texnika vositalari asosan epidiaskop, kodoskop, LETI, filmskop, televizor, videomagnitofon kabilardan iboratdir. Tasviriy san'atni o'qitishda molbert, taglik, reflektir kabi qo'shimcha texnik jihozlar ham qo'llaniladi. Bular naturani o'quvchining ko'rish gorizontiga moslashtirib olishda va rasm chizishda qo'llanadigan buyumlar bo'lib, ular yarim mexanik uslubda ishlatiladi.

Tasviriy san'at darslarida darsning samaradorligini ta'minlash maqsadida hozirgi kunda quyidagi texnika vositalaridan foydalanish mumkin:

Reflektir - naturaga tushayotgan yorug'-soyalarni me'yorda bo'lishi uchun qo'llaniladi.

Molbertlar - rasm chizish moslamalari bo'lib, darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda ishlatiladi. Tasviriy san'atni o'qitishda ko'proq epidiaskop qo'llaniladi.

Epidiaskop - tasvirlarni kattalashtirib ko'rsatish uchun ishlatiladi. Diapozitivlardan foydalanish uchun *LETI* - apparati qo'l keladi. Tasviriy san'at darslarida foydalanilayotgan texnik vositalardan yana biri filmskopdir. Unda diafilmlar namoyish etiladi. San'at asarlarini tahlil qilishda texnika vositalaridan foydalanish dars samaradorligini oshiradi.

O'qituvchi-bu ijodkordir, ta'lim sohasida tinmay ijod qilmog'i, o'zida o'zlashtirilgan bilim ko'nikmalarini yosh avlodga beminnat bermog'i, shu bilan bir qatorda doimiy izlanishda o'rganishda bo'lmog'i lozim. Bu esa o'z navbatida o'qituvchidan ta'lim tarbiya usulini yanada takomillashtirish, mavjud dasturlardan oqilona foydalana bilishi, darslik va o'quv qo'llanmalarini nashr etish, fanlarining ayrim soxalari bo'yicha o'quv va metodik qo'llanmalar yaratishini taqozo etadi. Bundan ayonki bugungi kun pedagoglari oldida ulkan va ma'suliyatli vazifalar turibdi.

Madomiki shunday ekan, bugun faoliyat yuritayotgan pedagoglar o'zlariga yaratib berilayotgan sharoitlardan, kulayliklardan kelajagimiz poydevori o'quvchi yoshlarni tarbiyalashda samarali foydalanishga va bu borada bor kuch-g'ayrat, bilim va malakalarini safarbar etishga burchlidirlar.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri o'quvchi – yoshlarning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Bugungi kunda islohotlar zahirida o'quvchi – yoshlarning bilimini oshirish muhim vazifalardan biri ekanligini guvohi bo'lmoqdamiz. Bu kabi targ'ibot – tashviqot ishlarini yanada keng samarali yo'lga qo'yilishi jamiyat taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Toshmurodovna, Y. D., & Ismoilovna, A. M. (2022). TASVIRIY SAN'AT DARSLARINING INTEGRATIVLIGI VA O'QUVCHILARDA ESTETIK DUNYOQARASHNI RIVOJLANTIRISH. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(5), 490-492.
2. S.F.Abdirasilov. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. Toshkent, 2012, 8-bet.
3. Oripov Badriddin Nuriddinovich. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi: Kasbhunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma (2-nashri). Toshkent, 2012, 35-bet.
4. A'zamjonov, A., & Muhammadali, C. (2022). Tasviriy san'at darslarini tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 84-88.
5. Каримов, Ў., Каримова, Г., & Каримов, Ў. (2021). Илм-Фан Ва Таълим Соҳасидаги Ахборотлашув. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 1(1), 103-110.
6. Karimov, U. U., & Karimova, G. Y. (2021). The importance of innovative technologies in achieving educational effectiveness. *Журнал естественных наук*, 1(1).
7. Ахмедбекова, М. К. (2024). БЎЛАЖАК ТАРБИЯЧИЛАРГА МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ РАСМ ЧИЗИШ ВА ИЖОДКОРЛИГИНИ ОШИРИШ УСУЛЛАРИНИ АҲАМИЯТИ. *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING*, 5(2), 255-257.
8. Ахмедбекова, М. К., & Дадажонов, М. Ё. (2022). Мутахассисни Касбий Тайёрлаш Жараёнини Моделлаштириш. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 183-194.
9. Qahhorovna, A. M. (2023). Maktabgacha Ta'lim Tashkilotlarida Tasviriy Faoliyat Mashgulotlarini Tashkil Etish Texnologiyalari. *Iqro*, 2(2), 553-561.
10. Эгамназаров, А. И., & Косимов, К. И. (2022). ДИАЛЕКТИКА МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ И РЕЛИГИОЗНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ В ФОРМИРОВАНИИ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА. *Экономика и социум*, (5-1 (96)), 843-848.

-
11. Ahmedbekova, M. (2022). ЁШ АВЛОДНИНГ БАДИЙ-ЭСТЕТИК ИЖОДКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТАСВИРИЙ САНЪАТНИНГ ЖАМИЯТДАГИ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ. *Science and innovation*, 1(B8), 112-119.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 9 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).